

## DORIVOR O'SIMLIKLAR ASOSLAR FANI TARKIBIDAGI FLAVONOID SAQLAYDIGAN O'SIMLIKLAR MAVZUSINING METODOLOGIK ISHLANMASI

**Bektayeva X.O**

ChDPU "Tabiiy fanlar" fakulteti "Genetika va evolutsion biologiya" kafedrası o'qituchisi

**Rashidova G.X**

ChDPU "Tabiiy fanlar" fakulteti "Biologiya" yo`nalish 4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7072444>

**Annotatsiya.** Tarkibida flavonoid saqlovchi o'simlik, mavzu yuzasidan bilimlarni oshirish, aqliy tafakkurni yuksaltirish, ularning xususiyatlarini o'rganish.

**Kalit so'zlar:** piron, flavrum, fizetin flavanoidi, ontogenetik faktorlar, yapon saforasu, bo'znoch, dastarbosh, ittikanak, qirqbo'g'im, uch rangli binafsha, achchiq taron, shaftoli, bargli taron.

## МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ РАЗРАБОТКА ТЕМЫ ФЛАВОНОИДСОДЕРЖАЩИХ РАСТЕНИЙ В ФУНДАМЕНТАЛЬНОЙ НАУКЕ О ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЯХ

**Аннотация.** Растение, содержащее флавоноиды, увеличение знаний по предмету, улучшение умственного мышления, изучение их свойств.

**Ключевые слова:** пирон, флаврум, физетин флаваноид, факторы онтогенеза, сафорасу японская, бозноч, дастарбош, иттиканак, кыргызогим, фиалка трехцветная, тарон горький, персик, тарон листовой.

## METHODOLOGICAL DEVELOPMENT OF THE TOPIC OF FLAVONOID-CONTAINING PLANTS IN THE FUNDAMENTAL SCIENCE OF MEDICINAL PLANTS

**Abstract.** Plant containing flavonoids, increase knowledge of the subject, improve mental thinking, study their properties.

**Keywords:** pyrone, flavrum, fisetin flavanoid, factors of ontogeny, Japanese saforasu, boznoch, dastarbosh, ittikanak, kyrgyzogim, tricolor violet, bitter taron, peach, leaf taron.

### KIRISH

Dorivor o'simliklar - odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o'simliklar. Yer yuzida dorivor o'simliklarning 1000lab turlari mavjud. Shulardan, O'zbekistonda tabiiy sharoitda o'sadigan va ma'daniylashtirilgan 120ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida ishlatiladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llaniladigan dori-darmonlarning qaryib 40-47foizi o'simlik xom ashyolaridan olinadi. Dorivor o'simliklarning tarkibidagi flavanoidlar deb benzo y - piron (xromon) unumi va asosida C6-C2-C3 uglerod atomlaridan tashkil topgan fenil propan skleti bo'lgan tabiiy birikmalara aytiladi. Eng birinchi o'simliklardan sof holda ajratib olingan flavonoid sariq rangda bo'lgani ( lotincha flavrum-sariq) uchun ham bu gruppadagi birikmalarga flavanoidlar deb nom berilgan. Flavanoidlar o'simlik hayotida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Flavanoidlar o'simlik gulini shakllanishida ishtirok etadi, bu esa o'z navbatida hasharotlarni o'ziga jalb qilib gullarni o'z paytida changlanishiga yordam beradi. O'simliklarning kasallikka chidamliligini oshiradi, masalan, no'xot o'simligi bargiga zamburug'lar tushsa-fizetin flavanoidi o'simlik bargida xosil bo'ladi. Sog'lom no'xot bargida

esa fizetin flavanoidi bo'lmaydi. O'simlik to'qimalarida ketadigan oksidlanish va qaytarilish jarayonida flavanoidlar faol ishtirok etadilar degan va boshqa qator fikrlar ham mavjud.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

O'simlik to'qimalarida ayrim flavanoidlarning to'planishi ko'p jihatdan shu o'simlikning turiga, avlodiga, oilasiga bog'liqdir. Albatta o'simlikni o'z vatanidan boshqa yerlarga, boshqa sharoitlarga ko'chirganda flavanoidlarni ko'p oki kam to'planishiga, suv, havo, quyosh nuri, yerning mineral tarkibi va boshqa ko'p faktorlar ta'sir qiladi. Shuning uchun aniq flavonoid saqlovchi o'simlik qaysi geografik joydan berilganligiga qarab faqat analizlardan keyingina tibbiyotga ishlatishga ruxsat beriladi.

Flavanoidlar saqlovchi o'simliklarni o'rganishda vatanimiz va chet el olimlarini ro'li: flavanoidlar saqlovchi dorivor o'simliklarni topish, ularni himoyasini, farmakologiyasini o'rganib, tibbiyotga tatbiq qilishda O'zbekistondagi qator ilmiy tadqiqot institutlaridan masalan: O'zbekiston FA qarashli o'simlik moddalar ximiyasi institutidagi kumarin va flavanoidlar ximiyasi laboratoriyasi olimlari, Bioorganik kimyo instituti olimlari, ToshDU tabiiy birikmalar ximiyasi muammo laboratoriyasi olimlari, Toshkent Farmasevtika instituti olimlari, hamda Rossiya, Ukraina, Gruziya olimlari kata xissa qo'shganlar.

**Flavanoidlar** saqlovchi dorivor o'simlik va maxsulotlar o'zlarining fiziologik ta'siriga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

I . Tarkibida **P** vitamin xususiyatiga ega flavanoidlar saqlovchi dorivor o'simliklar: Yapon saforasi

II . Tarkibida tinchlantiruvchi xususiyatga ega bo'lgan, yurak-qon tomi kasalliklarida qo'llaniluvchi dorivor o'simliklar: do'lana turlari, arslon quyruq turlari, baykal ko'kamaroni;

III . Tarkibida vitamin **K** saqlovchi va qon to'xtatuvchi xususiyatga ega bo'lgan dorivor o'simliklar: achchiq taron, shaftoliu, bargli taron, qushtaron;

IV . Tarkibida o't haydovchi xususiyatga ega bo'lgan va me'da ichak kasalliklarida qo'llaniladigan flavanoidlar saqlovchi o'simliklar : bo'znoq, dastarbosh, ittikanak;

V. Tarkibida antotsianlar saqlovchi hamda siydik haydovchi dorivor o'simliklar: uch rangli binafsha, qirqbo'g'im.

## TADQIQOT NATIJALARI

### Yapon saforasi

**Maxsulot tayyorlash uchun:** meva yetilgan paytida yig'ib olinadi. Rutin olish uchun g'unchasi yig'iladi

**Ishlatilishi:** mevasidan tayyorlangan nastoyka yiringli va trofik yaralarni, kuygan joyni davolash uchun ishlatiladi.

### Do'lana

**Maxsulot tayyorlash uchun:** o'simlikning gul to'plamlari may, iyun oylarida yig'ib olinadi, soyada quritiladi. mevasi yaxshi pishgandan keyin bandlari bilan yig'iladi, keyin bandlaridan tozalab. Quyoshda yoki uncha issiq bo'lmagan quritish joylarida quritiladi.

Ishlatilishi: preparatlari yurak kasalliklarida qo'llaniladi.

### Arslonquyruq

**Maxsulot tayyorlash uchun:** o'simlik gullaganida poyasining yuqori qismidan 30-40sm uzunlikda qirqib quritilgan o'simlikning poya, barg va gullaridan iborat.

**Ishlatilishi:** arslonquyruqning preparatlari asosan tinchlantiruvchi vosita sifatida gipertoniya, nerv qo'zg'alishi va ba'zi yurak kasalliklarini davlolarish uchun valeriana kabi ishlatiladi.

**Baykal ko'kamarani**

**Maxsulot tayyorlash uchun :** o'simlik gullaganida yer ustki qismi asosidan 10-12 sm balandlikdan o'rib olinadi va salqin yerda quritiladi.

**Ishlatilishi:** ichki organlardan qon ketishini to'xtatuvchi dori sifatida, akusher va ginekologik amaliyotda, bavoil kasalligini tuzatishda.

**Shaftolibarg**

**Maxsulot tayyorlash uchun:** o'simlik gullaganda uning yer ustki qismi o'rib olinadi va salqin yerda quritiladi.

**Ishlatilishi:** qabziyatda, ichki organlardan ketayotgan qonni to'xtatishda va bavoil kasalligini davolashda.

**Qushtoron**

**Maxsulot tayyorlash uchun;** o'simlik gullash davrida o'rib olinadi va salqin yerda quritiladi.

**Ishlatilishi:** akusher va ginekologik amaliyotida qon to'xtatuvchi vosita sifatida , siydik xaydovchi hamda buyrak va buyrak toshi kasalliklarida .

**Qumloq bo'znochi**

**Maxsulot tayyorlash uchun:** qalqonsimon gullarni 1sm bandi bilan qirqib olib, salqin yerda quritiladi.

**Ishlatilishi:** jigar, o't pufagi, o't yo'li kasallklarida.

**MUHOKAMA**

**Tarkibida flavonoid** saqllovchi o'simliklarni o'rganishdagi bilimlarni mustahkamlashda, insert usulidan foydalanamiz.

**Insert usuli:**

V- men bilgan narsani tasdiqlaydi

(-)- men bilgan narsaga zid

(+)- yangi ma'lumot

(?) meni o'ylantirdi, bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

| V | (-) | (+) | (?) |
|---|-----|-----|-----|
|   |     |     |     |
|   |     |     |     |
|   |     |     |     |

**XULOSA**

Tarkibida flavonoid saqllovchi o'simliklarning dorivor o'simliklar ichida qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini, dorivor o'simliklarning ko'pgiligi tarkibida flavonoid saqlashini shu orqali ko'plab kasalliklarga davo bo'lishini anglab yetdik

## REFERENCES

1. Arxiv.uz
2. Н.Холматов. Ҳ.Х.Холматов, Farmakognoziya Uzbekistan Respublikasi Oliy va urta maxsus ta'lim vazirligi tibbiyot bilim yurtlari uxuvchilari uchun darslik sifatida tasdiklagan.(III-nashir) Toshkent-1997y.
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Dorivor\\_o`simliklar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Dorivor_o`simliklar)
4. Бектаева, Х. О. (2020). Биологические основы регуляции плодообразования у новых перспективных сортов хлопчатника (Наманган-34 и Омад). *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (2), 18-25.
5. Махсуда Абдуғафоровна Аманова, Хурият Ортиғалиевна Бектаева Профессинал таълим дастурлари мазмунини модулли -компетенциявий ёндашув асосида такомиллаштириш // *Academic research in educational sciences*. 2021. №CSPI conference 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/professional-talim-dasturlari-mazmunini-modulli-kompetentsiyaviy-yondashuv-asosida-takomillashtirish> (дата обращения: 07.09.2022).
6. Mirzaeva, Nodira (2019) "THEORY AND PRACTICE OF ECOLOGICAL COMPETENCE IN STUDENTS," *Central Asian Journal of Education*: Vol. 3, Article3.
7. MIRZAYEVA N. A. AXIOLOGICAL SOLUTION OF PROBLEM OF HUMAN AND NATURE // *Будущее науки-2017*. – 2017. – С. 363-365.
8. Mirzaeva N. A., Umarov A. S. Practical Proposals and Results of The Science And Pisa International Assessment Programs for The Development of Natural Literacy of Pupils in Uzbekistan // *International Journal of Academic Pedagogical Research*. – 2021. – Т. 5. – №. 4. – С. 69-71.
9. Abdukhmidovna M. N. MODERN ASPECTS DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL COMPETENCE OF STUDENTS IN UNIVERSITIES // *Archive of Conferences*. – 2020. – Т. 4. – №. 4. – С. 163-167.
10. Умаров Абдухамид Саттарович, Атаназар Каримович Рахимов, Мирзаева Нодира Абдухамидовна, ДАРС СИФАТИНИНГ ТАҲЛИЛИ – ТАЪЛИМ ТАРАҚҚИЁТИ МЕЗОНИ, ТА'ЛИМ VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI: 2022: Special Issue\_Та'limni modernizatsiyalash jarayonlari muammolar va yechimlar»
11. Атаназар Каримович Рахимов, Мирзаева Нодира Абдухамидовна, РОЛЬ УЧЕБНОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ПОВЫШЕНИИ МЕДИАГРАМОТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ, ТА'ЛИМ VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI: 2022: Special Issue\_Та'limni modernizatsiyalash jarayonlari muammolar va yechimlar»